



KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA SINF DAN TASHQARI ISHLARNING O'RNI

Hayitova Furuza Abdullayevna

Termiz davlat universiteti Boshlang'ich
ta'lim kafedrası o'qituvchisi

+998905211510

firuzaxon78@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7045422>

ARTICLE INFO

Received: 28th August 2022

Accepted: 31st August 2022

Online: 03rd September 2022

KEY WORDS

kitobxonlik, kitob, o'qish madaniyati, sinfdan tashqari ishlar, viktorina, ko'rik-tanlov, ota-ona hamkorligi, tadbirlar.

ABSTRACT

ushbu maqolada hozirgi kunda davlat ahamiyatiga molik, dolzarb masalardan biri kitobxonlik, o'qish madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, kitob, kitobxonlik, kutubxona bilan tanishtirish, unda ota-ona hamkorligini yo'lga qo'yishning samaradorligini ko'rik-tanlovlarni tashkil etish misolida ko'rsatib berilgan.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Bilimdan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, Farobiy bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini

ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin».

“Ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini qayta ko'rib chiqish...” [2].

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”.

Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”, “Ilm baxt



keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bunday purhikmat naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Eng muhimi, necha ming yillardan buyon sayqallanib, ne-ne avlodlarga yo'lchi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.[4]

Hozirgi globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining bu qadar jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun jahondagi ko'pgina bosma nashrlarning adadi kamayib, ularning onlayn versiyasi ko'proq o'qilmoqda. Dunyoning eng boy kutubxonalarida saqlanayotgan bosma manbalarning aksariyati elektronlashtirib bo'lindi. Bu jarayonlar mamlakatimizdagi kutubxonlarda ham izchil kechmoqda.

Ayni chog'da, elektron kitob qurilmalari ishlab chiqarish kun sayin o'sishi natijasida mahsulot narxi arzonlashib, ulardan foydalanish imkoniyatlari esa kengayib bormoqda. Avvallari bunday qurilmalarda

maxsus formatdagi kitoblarnigina o'qish mumkin edi, endilikda ularda surat va video tomosha qilish, audiomateriallar eshitish funksiyasi ham mavjud.

Zamonaviy elektron qurilmalar hatto dangasaroq o'quvchilar uchun kitob matnini o'zi o'qib beradi. Shu tariqa narxi arzon, foydalanish uchun qulay, kam joy band etadigan va beziyon virtual kitoblarning tobora ommalashib borayotgani, o'z-o'zidan, “Qog'ozda chop etilgan kitoblarning kelajagi bormi?” degan haqli savolni keltirib chiqarayotgani ham sir emas.[4]

Aytmoqchimizki, Internet va boshqa vositalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong va tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezgulikni targ'ib etishda bosma kitobning o'rni bundan keyin ham saqlanib qolaveradi. Oilada, maktabda, mahallada, barcha jamoat tashkilotlarining asl maqsadlari kitobxonlikka qaratilsa, hatto telefonlarimizning xotirasidan ham turli o'yin yoki ko'ngil ochar dasturlar o'rniga elektron kitoblar o'rin oladi. Binobarin, kitob asrlar davomida axborot saqlovchi eng samarali vosita vazifasini bajargan. Qolaversa, ming yil oldin Samarqand qog'ozida bitilgan qo'lyozmalar hozir ham insoniyatga ma'rifat nurini sochmoqda.

Zero, kitob — qalb chirog'i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan taralayotgan va elektron nashrdan topib bo'lmaydigan o'ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo'jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko'ngil cheksiz zavqqa to'lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning huzur-halovati tamoman o'zgachadir.

Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, «Kitob (bitig) barcha



bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir». SHu ma'noda, shaklidan qat'i nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao. [5]

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish lozim bo'ladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarining o'ziga xosligi shundaki, to'garak, debat dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar,

savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilik hayoti, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2 sentyabr – bilimlar kuni, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8 mart, Navro'z bayrami, gullar, Mehrjon, hosil bayramlari kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqod tushunchasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manbaa hisoblanadi. O'quvchilarni qiziqarli kitoblar olamiga olib kirish uchun muhim vosita sanaladi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;



- tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarkib topishi lozim. Bu axloqiy sifatlarni tarkib toptirishda avvalo, o'quvchilarni kitobxonlik madaniyatini shakllantirishimiz lozim. Har bir oila, har bir bola, har bir mahalla kitobxon rejasini ishlab chiqish, dasturlarini amalga oshirishda turli yosh vakillarini qamrab olishi maqsadga muvofiq.

Davlatimizning rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq" deb kuyunchaklik bilan ta'kidlaganida bir olam ma'no bor.[3]

O'zbek tili dunyoni hayratga solgan, durdona asarlar yaratilgan noyob til, bebaho madaniy yodgorlik, ajdodlar va avlodlarni birlashtirib turgan muqaddas xazinadir. "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Xamsa", "Boburnoma", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "O'g'uznoma" kabi olis va yaqin tariximizda yaratilgan ushbu asarlarimizni o'qigan borki, ulardagi chuqur ma'no, so'z ohanglaridan olamjahon ruhiy quvvat oladi. Bunday nodir asarlarni o'qish inson tafakkuri, badiiy didi va estetikasini boyitadi. Shu ma'noda, Prezidentimizning

yoshlarimizni kitobxonlikka o'rgatish, bu ishga ijodkorlarni jalb etish haqida bot-bot ta'kidlashi zamirida ham navqiron avlodni boy ma'naviy merosimiz bilan tanishtirish, qalbida tariximizga muhabbatni uyg'otishdek ulug'vor niyatlar mujassam.[2]

Ayniqsa, oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj va talablarni hisobga olgan holda tarbiya beruvchi boshqa bo'g'inlar bilan munosabatini pedagogik jihatdan aniqlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshiruvchi maqbul yo'llarni tadqiq etish jamiyatimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya, uning mazmuni va tashkil etilishi oila va ta'limga asos soldi (16-modda), ta'lim tizimining yetakchi bo'g'inlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Zero, oilalarda ma'naviy boy, aqlan yetuk barkamol shaxslar voyaga yetar ekan, jonajon yurtimiz kelajagi ishonchli qo'llarda bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi. Layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar".[1]

Oilalar Respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyliigi asosida rivojlanmoqda. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Bu esa o'z navbatida oilaviy tarbiya metodlari va mazmunining umumiy va xususiy tomonlari rivojida yaqol ko'zga tashlanadi. [6]



Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lgan axloqiy hislatlar; xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, ayniqsa ayollarga nisbatan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik kabi ijobiy fazilatlardan namuna oladilar, voyaga yetadilar. Demak, ota-ona oilada nimaga ko'proq e'tibor qaratsalar farzandlar ham shu muhitda ulg'ayar ekan. Dono xalqimiz bejizga "Qush uyasida ko'rganini qiladi" demaganlar.

Darhaqiqat, oilaviy muhit va kitob bolaning kelgusidagi istiqbolini belgilab beruvchi katta kuchdir. "Esimda: uyimiz to'rida kitoblar turardi. Men ularni o'qishga ishtiyoqmand edim. Bundan tashqari, otam uyda qiroat bilan g'azal o'qirdilar. G'azal o'qiyotganlarida otamning yuzidan mehr ufurib turardi. Insonga kitobning ta'sirini bolalar o'z otasida, onasida ko'rmasa, qaerda ko'radi? Kitobga muhabbatni otamizdan va onamizdan o'rganganmiz". Kitobsevarlik, kitobxonlik yoshlarimizning fazilatiga aylansagina, ular omad va baxt bilan hamdam, hamnafas bo'lishi muqarrar.

[4]

Ta'lim-tarbiyaning poydevori sanalgan boshlang'ich sinfdan boshlab, o'quvchilarning ta'lim jarayonini ota-onalarning o'zaro hamkorligiga tashkil etish samarali natija beradi. Sinfdan tashqari ishlarini tashkil etish ko'p jihatdan ota-onalar, ularning faolligi bilan bog'liqdir. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarining turlari ko'p bo'lib, shulardan biri ko'rik-tanlovlardir. Ko'rik-tanlovlarni boshlang'ich sinflarning 3-4 sinflari

o'rtasida o'tkazish maqsadga muvofiq. Biz aynan ko'rik-tanlovlarga to'xtalganimizning asosiy sababi, ota-onalar bilan birgalikda tashkil etish imkoniyati mavjud bo'lganligidir. Ko'rik - tanlovlarni tashkil etishda ishtirokchilarning bir emas, bir qancha badiiy adabiyotlani o'qib chiqishlari va ota-onalari bilan ishtirok etishlariga sharoit yaratilganligidir.

Ko'rik-tanlov o'tkazish rejasi yil boshida tuzib olinadi va direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Bunda o'tkaziladigan ko'rik-tanlovning maqsadi aniq qo'yilishi, o'quvchilarning qiziqishlari va yoshi albatta inobatga olinishi kerak. Ko'rik-tanlov o'tkazish jamoaviy tarzda yoki yakka tartibda ham o'tkazilishi mumkin. Biz ana shu ko'rik-tanlovni ota-onalar bilan hamkorlikda, turli yosh vakillari ishtirokida tashkil etishni tavsiya etmoqchimiz. Asosiy maqsadimiz, oilada ota-onalarning o'zlarini kitobxonlik madaniyatini, zamonaviy bilimlarga e'tiborlari qanday ahvolda, pedagogikadagi namuna ko'rsatish metodidan qanday foydalanayotganligini tekshirish.

Ushbu ko'rik-tanlovni tashkil etishda, turli xil kasb egalaridan iborat oilalar tanlanadi, tanlov shartlari bilan oldindan tanishtiriladi.

Jamoaviy tarzda dastlab ishtirokchilar ikki guruhga ajratib olinadi, ularning har taraflama tengligiga e'tibor beriladi. Shundan so'ng guruh qatnashchilari tayyorgarlik ishlarini boshlashadi. Bu bellashuvni birinchi bosqichda teng yoshlilar yani oquvchilar o'rtasida, keyinchalik, turli yosh vakillari yani o'quvchilarning shu jamoasi, faqat ota-onalari o'rtasida, keyinchalik maktablar o'rtasida ham uyushtirish mumkin. Bu



tadbirni tayyorlash uchun kamida bir oy talab qilinadi.

Ota-onalarning ishtirokida tashkil etiladigan bellashuv shartlarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Ishtirokchilarning o'zaro tabrigi.
2. Ifodali o'qish. (Biror bir mavzuga bag'ishlangan she'rni ifodali o'qib berish, har bir guruhdan ikkitta ishtirokchi o'qiydi.
3. Yosh rassomlar ko'rigi. (ma'lum vaqt davomida har bir guruhning bittadan yosh rassomi biror bir manzara aks etgan suratni chizib berishlari lozim)
4. Guruh ishtirokchilarining o'zaro maqollarning aytishuvi. Bahru bayt shaklida. 1-guruh aytgan maqolining oxirgi harfi bilan 2-guruh maqol aytadi.
5. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz aks etgan ko'rinish (tanlangan mavzu tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Ko'rinish davomida o'zbek xalq laparlaridan, allalaridan, yor-yorlaridan foydalanish inobatga olinadi)
6. Savollarga tez javob qaytarish o'yini. (Savollar O'zbekiston, uning tarixi, boyliklari, tabiati to'g'risida bo'lishi shart)
7. Guruhlarning erkin sharti. (Bunda xoxlagan bir badiiy asardan namuna o'qish yoki sahna ko'rinishini ko'rsatish berish vazifasi topshiriladi)

Bu kabi bellashuvlar orqali o'quvchilar o'rtasida tashkil etilganda, ularning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlashi bilan birga, yuqorida aytganlarimizdan tashqari o'zlariga nisbatan sinfi oldidagi ma'suliyatni his qiladilar. Ota-onalar ishtirokida tashkil etilganda esa, ota-onalarning namunasi, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishlari, berilgan topshiriqlarni birgalikda bajarish, bir-birlarining imkoniyatlarini o'rganish, o'zaro hurmat, kelajakda duch kelgan muammolarni ham birgalikda bartaraf

etish, maktab va oila aloqasini mustahkamlaydi hamda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan beshta muhim tashabbusning birgalikda bajariladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shartlar guruh a'zolaridan astoydil tayyorgarlik ko'rishni, Vatanimiz haqida, uning milliy qadriyatlari haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishni, savollarga javob berish uchun esa darslik va qo'llanmalarga murojaat qilishni, vatan, ota-ona, ustozlarga nisbatan e'tiqodni, mehr-muhabbatni namoyon qilishlarini talab qiladi. Bu talab faqat o'quvchiga emas balki ularning ota-onalariga ham tegishli ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Sinfdan tashqari ishlarni turli xil turlaridan foydalanib tashkil etish ota-onalarga farzandining kelajagi, ma'naviy kamoloti haqida ga'mxo'rlik qilish mas'uliyatni tarbiyalaydi. Kitob o'qish uchun alohida vaqt topish, farzandining shaxsiy qiziqishi, yashirin iqtidorini aniqlash, uyda farznlari bilan vaqtni seriallar muhokamasi emas, balki badiiy adabiyotlar, undagi voqea-hodisalar, ijobiy va salbiy qahramonlar, ularning qilgan ishlarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi, haqida bahs-munozara va suhbatlar tashkil etish ko'nikmasini hosil qilishga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshlangich sinf o'quvchilari bilan sinfdan tashqari ishlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qilishlarini, (albatta, o'qituvchi va ota-onalar ko'magida) shoirlarning she'rlarini yod olishlari, shahar kutubxonalari bilan tanishish va undan foydalanish qoidalarini o'rgatish, o'lkashunoslik muzeylariga sayohat qilishlarini uyushtirish shartdir. Chunki, mana shu ishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashlari



kengayadi, so'z boyligi oshadi, axloqiy e'tiqodi shakllanadi, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz bardavomligiga, olilaviy kitobxonlikka erishiladi.

SHarqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi fikrlariga bir quloq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar".

Yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni

muqaddas bilib, ko'z qorachig'idek asragan kishilarni ziyoli, deb ataganlar. Ziyoli – nur tarqatuvchi, u o'zining sa'y-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma'naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchilar kishilar hisoblangan. [5]

Sinfdan tashqari ishlarning turli yoshdagi o'quvchilarning turli xil fikrlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil etiladigan bahs-munozara, konkurs, ko'rik-tanlovlar qatnasuvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyatimizning bo'gini hisoblangan oiladan boshlab kitob o'qishga berilgan e'tibor, kelajakda o'z mevasi bilan jamiyatimizning, ma'naviyatimizning, rivojlanishiga, milliy qadriyatlarimizni avloddan avlodga o'tishiga poydevor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish o'qituvchi va tarbiyachilarning faoliyatiga, uni qanday tartibda tashkil etish, maqbul usullarini amaliyotga tadbiiq etish kabi mas'uliyatni yuklaydi. Zero, o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga bilim olishning eng qiziqarli va qulay usullari o'rqali to'g'ri yo'l ko'rsatishdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent/1992 16-modda
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев Тошкент шаҳри, 2017 йил 12 январь, ПФ-4789-сон
3. Ш. Мирзиёев, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси, Тошкент шаҳри, 2017 йил, декабрь
4. Азиз Қаюмов, ЎзФА академиги, «Буюк хизматлари учун» ордени соҳиби "Халқ сўзи" газетаси сайти
5. А. Саидов, Китоб ва китобхонлик – инсон маънавияти кўзгуси, "Миллий тикланиш" газетаси



6. 14. K.Munavvarov. Oila pedagogikasi. -T., "O`qituvchi", 1994.